ISSN 2181-3187

# MUHAMMAD RIZO OGAHIYNING MURAKKAB HAYOT YO'LI

***Teshayeva Dilyayra Muzaffar qizi***
*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi*
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti siyosati va turizmi kafedrasi turizm fakulteti malayziya-ingliz guruhi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Muhammad Rizo Ogahiy hayot yo'lining o'ziga hos jabhali,ayriliqli,og'riqli damlar, aniq insoniy fikr,tirishqoqlik va jasorat namunasi bo'la olgan Ogahiy asarlari va o'zidan o'chmas iz qoldirgan shaxs ga bo'lgan e'tibor va hozirda Muhammad Rizo Ogahiy merosiga ko'rsatilayotgan e'tibor bevosita yoritib o'tilgan.

**Annotation:** Muhammad Reza Ogahi's life path has its own facet, separation, painful moments, Ogahi's works, which are an example of clear human thought, perseverance and courage, and a person who left an indelible mark on himself. attention and the current attention paid to the legacy of Muhammad Reza Ogahi is directly covered.

**Аннотация:** Жизненный путь Мухаммада Резы Огахи имеет свою грань, разлуку, болезненные моменты, произведения Огахи, которые являются примером ясной человеческой мысли, упорства и мужества, человека, оставившего неизгладимый след в себе, внимания и нынешнего внимания, уделяемого ему. Наследие Мухаммеда Резы Огахи напрямую освещено.

**Kalit so'zlar:** Mirob, shashmaqom, shakarlang.

**Kirish.** Bugungi kunda Muhammad Rizo Ogahiyning hayot yo'liga qiziqish kun sayin ortiq bormoqda va Ogahiy asarlarini o'quvchilar sono yildan-yilga ko'payib asarlari hal orasida sevib mutoala qilinmoqda. Ogahiy asarlari,she'rlarini o'qib yuksaf fazilatli shaxs bo'lganligini ko'rish mumkin. Ogahiy tarixiy asar yozib qoldirish bilan bir qatorda, hozirgi adabiyot ma'naviyatiga ham yirik boylik qoldirgan. U yozib qoldirgan asarlari juda qiymatli bo'lishi bilan bir qatorda, eng muhim e'tiborga loyiqdir. Unda keltirilgan ma'lumotlar asosida davrning madaniy hayoti, ijodkorlarning bu davrdagi ijtimoiy ahvoli haqida ham tasavvurlar hosil qilish mumkin. Xivada yaratilgan badiiy asarlar haqida akademik Bartold quyidagicha yozgan edi: "...tarixiy voqealarni bayon etishi va ularda keltirilgan aniq materiallarning ko'pligi jihatidan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixiga doir bizgacha yetib kelgan hamma narsalarni o'zidan ancha orqada qoldiradi ". Hozirgi zamonda yozilayotgan asarlarda Ogahiy yozganidek yozilgan asarlarni uchratishingiz qiyin, chunki Ogahiy davrida oddiy bir asarni yoki g'azallarni yozish qat'iy bir rejalar asosida tuzulgan, ana shundagina asarlarning qiymati, g'azallarning qofiyasi go'zal tarzda namoyon bo'lgan.

Ulardek ga’zaliyotga yoki san’atga mehr qo’ygan insonlarni uchratish qiyin. Uning yozgan asarlari butun tarixda eng qiymati yuqori bo’lgan asarlardan bo’lib qolaveradi.

Ogahiy 1809 - yilda tug’ulgan, Xiva madrasalarida arab, fors, turk tillarini, mumtoz adabiyotni puxta egallagan. Muhammad Rizo juda yoshligidan amakisi mashhur tarixchi, va mamlakat bosh mirobi Munisning qo’lida tarbiya topgan. Munisning xonadonida o’z davrining yetuk allomalari, shoirlar tez-tez to’planib, suhbatlar qilishar, aynan shu muhitda Muhammad Rizo Xorazimning mashhur shoir va olimlari, adabiyot muhlislarining suhbatlarida ishtirok etgan. Sharq klassikalari asarlari, ayniqsa, Navoiy ijodini qunt bilan o’rgangan. Ayni paytda u amakisiga miroblik[1] qilishda ham katta yordamchi bo’lib, bu sohaning sir- asrorlarini ham o’zlashtirib boragan. Munis vafot etganidan so’ng, Xiva xoni Olloqulixon 20 yoshli Ogahiyni saroydagi bosh mirob lavozimiga tayinlagan va shu davrdan e’tiboran Ogahiy xalq hayoti va saroy ishlari bilan shug’ullangan. Xizmat yuzasidan ko’p qishloqlarda bo’lib, avom xalq- dehqonlar, hunarmandlar hayoti, muammolari, orzu-istaklari bilan yaqindan tanishgan va bu ham o’z ijodida aksini topgan. Uning ijodiy shakillanishida amakisi Munis Xorazimiyning ro’li katta edi. Munis tarixnavis olim, mohir tarjimon, shoir, xattot va marifatparvar shaxs edi. U arab, fors, turkey xalqlar adabiyoti bilimdoni, hamda tarixdan yaxshi xabardor, mohir xattot bo’lib, kufiy, rayhoniy, xatti shikasta kabi xatlarni yaxshi bilgan.Ogahiy Xorazm tarixnavislik an’analarini davom ettirib, Xiva xonliginin keying davrlari tarixga bag’ishlangan bir qator asarlar yaratdi. Uning xonga bag’ishlangan “Riyoz ud-davla” (1844-y). Rahimquluxon davriga bag’ishlangan “Zubdat ut- tavorix” (1846-y), Muhammad Aminxon davriga bag’ishlangan “Jome ul- voqeoti sultoniy” (1865-yil), Sayid Muhammadxon davriga bag’ishlangan “Gulshani davlat” (1865-y), Muhammad Rahimxon Feruz davriga bag’ishlangan “Shohidi iqbol” asarlarida xiva xonligining 1813- yildan to 1874- yilgacha bo’lgan tarixi davraiy izchilkda, boy tarixiy manbalar asosida yo-ritib berilgan edi. U Xiva taxtiga ketma-ket kelib ketgan sakkiz xon hukumronligi davrida yashab, harbiy yurishlar, tarixiy voqealar guvohi bo’ladiva ularni o’z asarlarida aks ettiradi. Muhammad Rizo Ogahiy juda sermahsul serqirra olim edi. U yirik she’riy devon va 6 ta tarixiy asar yaratish bilan birga tarjimachilik bilan ham sermahsul ijod qilgan. Ogahiy jami 19 ta badiiy, tarixiyva boshqa janrlardagi asarlarni o’zbek tiliga tarjima qilgan. Yana bir usmoli turk tilidagi asarni o’zbek tiliga o’girgan.

1) «Ravzat us-safo» (Mirxond);
2) «Tarixi jahonkushoyi Nodiriy» (Muhammad Maxdiy Astrobodiy);
3) «Badoe’ ul-vaqoe’» (3. Vosifiy);
4) «Miftoh ut-tolibin» (Mahmud binni SHayx Ali G‘ijduvoniy);

[1] Mirob - suv ishlari boshqaruvchisi

ISSN 2181-3187

5) «Tabaqoti Akbarshohiy» (Muhammad Muqim Hirotiy);
6) «Tazkirai Muqimxoniy» (Muhammad YUsuf Munshiy);
7) «Ravzat us-safoyi Nosiriy» (Rizoqulixon Hidoyat);
8) «Axloqi Muhsiniy» (Koshifiy);
9) «Qobusnoma» (Kaykavus);
10) «Zubdat ul-hikoyot», «SHarhi daloil ul-hayrat» (Muhammad Voris);
11) «Guliston» (Sa'diy);
12) «Yusuf va Zulayho» (Jomiy);
13) «Shoh va gado» (Hiloliy); kabi asarlarni tarjima ilgan

Devonga «Ash'ori forsiy» nomi bilan Ogahiyning fors tilidagi 1300 misra she'ri ham kiritilgan. Devondagi asarla

**Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda qiyin damlarda ham ijodini to'xtatmagan va doim izlanishda bo'lgan mutaffakkir, tarjiman Muhammad Rizo Ogahiy hayot yo'li murosali va qiyin kechgan. Amakisi Munis Xorazmiyning vafoti bundan tashqari shol bo'lib qolishlari natijasida ijodlari to'xtab qoladi.Umrining oxirigacha moddiy muhtoj, g'amgin, kasalmand ahvolda kun kechiradi. Muhammad Rizo Ogahiy komil, inson eng avvalo, yuksak axloq bo'lishi kerakligini, uning bu hayotdagi vazifasi halollik va rostgo'ylikni qaror toptirish, yomon rasm-u rusumlarni yo'qotib, yaxshi, ezgulikka boshlaydigan qonun-qoidalarni joriy etishdan iboratligini o'z g'azallarida yorqin ifoda etadilar. Inson komil inson darajasiga yetishi uchun ham o'zini anglab yetishi kerak. Zero o'zini anglamagan inson bu dunyodagi hech bir voqelikni anglamaydi deb aytgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1) MUHAMMAD RIZO OGAHIYNING TARIXIY ASARLARI //Oxunjonov Bobirjon Ilhomjon o'g'l
2) Юсупова, Р. Т., & Шаланкова, О. Е. (2020). РЕПРОДУКТИВНОЕ ЗДОРОВЬЕ ДЕВОЧЕК-ПОДРОСТКОВ, ПРОЖИВАЮЩИХ В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. In Университетская наука: взгляд в будущее (pp. 612- 614)

[2] Shakarlang-shol

3) Юлдашева, М. Т., & Шаланкова, О. Е. (2023). ВОЗДЕЙСТВИЕ ПЕСТИЦИДОВ НА КОЛИЧЕСТВО РЕСНИЧЕК В РЕСПИРАТОРНОМ ЭПИТЕЛИИ. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 7(7), 45-48.
4) Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'rni." mavzusidagi ilmiy nazariy anjuman materiallar. Toshkent, 2020 yil, 20 may. 2.Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy.
5) MUHAMMAD RIZO OGAHIY IJODIDA AXLOQIY MASALALAR TAHLILI /Ergasheva Feruza
6) Абдулазизова, Ш. (2017). ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ПРОТИВОВИРУСНЫХ ПРЕПАРАТОВ ПРИ H1N1-АССОЦИИРОВАННОЙ ПНЕВМОНИИ. In Современные медицинские исследования (pp. 23-24).